



FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste'dodlarni kashf etamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025-2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI (11-sinf)

FANIDAN

TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

Ajratilgan vaqt: 90 daqiqa
Savollar soni: 30 ta
Maksimal ball: 50 ball

Ushbu savollar kitobi 4 sahifadan iborat.

Fan olimpiadalari markazi
rasmiiy telegram sahifasi.

@Fan_olimpiadalari_M

Olimpiada topshiriqlari yechimlari
ushbu telegram kanalda e'lon qilib
boriladi.



© Fan olimpiadalari markazi, 2025

1. [0,9 ball] Kompyuterning **tezkor xotirasi (RAM)** asosiy vazifasi nimadan iborat?

- A) Ma'lumotlarni doimiy saqlash
- B) Dasturlarni faqat o'rnatish uchun ishlatiladi
- C) Dasturlar va ma'lumotlarni ishlash jarayonida vaqtinchalik saqlash
- D) Kompyuterni viruslardan himoya qilish

2. [0,9 ball] [A-C]*.txt maskasi qaysi fayl nomiga mos EMAS?

- A) A1.txt B) Bfile.txt
- C) Cdata.txt D) Ddoc.txt

3. [0,9 ball]

www.support.microsoft.com manzilidagi birinchi darajali (TLD) domenni aniqlang.

- A) support B) microsoft
- C) com D) www

4. [0,9 ball] 2 daqiqa davom etuvchi stereo (2 ta kanal) audio yozuv 32 kHz, 16 bit formatda yozilgan. Audio faylning hajmini (KB) aniqlang.

- A) 15360 B) 12000
- C) 14000 D) 16000

5. [0,9 ball] Quyida algoritm berilgan:

1. Boshlash
2. $S = 0, i = 1$
3. Agar $i \leq 10$ bo'lsa $\rightarrow S = S + i, i = i + 1 \rightarrow$ 3-qadamga qaytadi
4. Aks holda \rightarrow 5-qadamga o'tadi
5. S ni chiqarish
6. Tugatish

Ushbu algoritm ishlaganidan so'ng S ning qiymati qancha bo'ladi?

- A) 45 B) 50 C) 55 D) 60

6. [0,9 ball] Quyidagi kod natijasini aniqlang.

```
S = 0
for n in range(1, 51):
    if n % 15 == 0:
        S += n
print(S)
```

- A) 45 B) 90 C) 75 D) 60

7. [0,9 ball] Kitob:

- Har bir sahifa – 64 qator
- Har qator – 32 belgi
- Kitob – 5 sahifa

Agar 1 belgi = 1 bayt deb olinsa, kitobning hajmi necha KB?

- A) 5 KB B) 8 KB C) 10 KB D) 12 KB

8. [0,9 ball] 100 MB hajmdagi faylni internet orqali 20 Mbit/s tezlikda yuborish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?

- A) 20 soniya B) 40 soniya
- C) 60 soniya D) 80 soniya

9. [0,9 ball] Kalit so'z: KEY

Shifrlangan matn: MFB

Ingliz alifbosi: A B C D E F G H I J K L M N O P Q R S T U V W X Y Z (A=0, B=1 ... Z=25)

Matn Vigenere (Vigenère) usulida

deshifrlanganda natija qanday bo'ladi?


- A) CBD B) MAT C) BAT D) CAB

10. [0,9 ball] Noma'lum sanoq sistemasining asosini aniqlang.

$$162_x = 200_{16} - 616_x$$

- A) 5 B) 10 C) 16 D) 8

11. [1,5 ball] Quyidagi mantiqiy sxemaga mos mantiqiy ifodani aniqlang.



- A) (x and y) or (not z)
- B) (x and y) nor (not z)
- C) (x nand y) nor (not z)
- D) (x or y) and (not z)

12. [1,5 ball] Quyidagilardan qaysilari faqat tashqi xotira qurilmalari hisoblanadi?

1. Flash-disk
2. RAM
3. Qattiq disk (HDD)
4. SSD
5. ROM
6. CD/DVD disk

- A) 1, 3, 4, 6 B) 2, 3, 4, 5

- C) 1, 2, 5, 6 D) 1, 3, 5, 6

13. [1,5 ball] Quyidagilardan qaysilari dasturlash tillari hisoblanadi?

1. Python
2. Java
3. PyCharm
4. Windows
5. C++
6. Excel

A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 4
C) 1, 3, 5 D) 2, 3, 6

14. [1,5 ball] MS Excel jadvalda A1=3, A2=5, A3=2 va B1=4.

Inglizcha:

=PRODUCT(A1:A3) + MAX(A2:B1) - MIN(A1:B1)

Ruscha:

=ПРОИЗВЕД(A1:A3) + МАКС(A2:B1) - МИН(A1:B1)

formula natijasini hisoblang.

A) 23 B) 25 C) 30 D) 32

15. [1,5 ball] Sizning Access bazangizda "Chiptalar" jadvali bor:

- ID
- Yo'lovchi_ismi
- Avtobus_raqami
- Sana

Har bir chipta **unikal** bo'lishi uchun qaysi maydonni birlamchi kalit sifatida tanlash eng to'g'ri bo'ladi?

A) Yo'lovchi_ismi B) Sana
C) ID D) Avtobus_raqami

16. [1,5 ball] HEX rang kodini RGB formatiga o'tkazing.

#3366CC

A) (102, 51, 204) B) (51, 102, 204)
C) (33, 66, 204) D) (51, 204, 102)

17. [1,5 ball] Video fayl 1 daqiqa davom etadi, kadr o'lchami 1024x512, rang chuqurligi 24 bit, 1 sekundda kadrlar soni 30 ta. Video faylning hajmini (MB) aniqlang.

A) 5000 B) 2500 C) 3000 D) 2700

18. [1,5 ball] Nechta foydalaniladigan xost IP mavjud?

IP: 172.16.0.0 /30

A) 2 B) 8 C) 6 D) 14

19. [1,5 ball] Aholi sonining o'sishini ifodalovchi tenglama $P = P_0(1+r)^t$ qaysi turdagi modelga kiradi?

A) Matematik model B) Grafik model
C) Algoritmik model D) Fizik model

20. [1,5 ball] Quyidagilardan qaysi biri JavaScript framework emas?

A) React B) Angular
C) Vue D) Bootstrap

21. [2,6 ball] Talabalar jadvalidan Yoshi = 20 bo'lgan talabalar sonini hisoblash uchun qaysi so'rov to'g'ri?

A) SELECT COUNT(*) FROM Talabalar WHERE Yoshi = 20;
B) SELECT SUM(Yoshi) FROM Talabalar WHERE Yoshi = 20;
C) SELECT * FROM Talabalar WHERE Yoshi = 20;
D) DELETE FROM Talabalar WHERE Yoshi = 20;

22. [2,6 ball] Quyidagi kod natijasini aniqlang.

```
list = [4, -3, 1, 0, -2]
```

```
S = 0
```

```
for n in list:
```


```
    if n<0:
```

```
        S += n
```

```
print(S)
```

A) -5 B) 0 C) 5 D) 1

23. [2,6 ball] Algoritm natijasini aniqlang.



A) 60 B) 120 C) 20 D) 0

24. [2,6 ball] MS Accessda quyidagi jadval yaratilgan.

ID	Familiya	Ism	Yosh	Ball
1	Karimov	Aziz	18	90
2	Akramova	Laylo	17	85
3	Hasanov	Bekzod	19	92
4	Valieva	Dildora	18	75
5	Nurmatov	Anvar	20	88

Criteria(Условие отбора) qatoridagi Familiya ustuniga quyidagi shart yozilgan bo'lsa, so'rov natijasini aniqlang.

Like "*va"

A)

ID	Familiya	Ism	Yosh	Ball
1	Karimov	Aziz	18	90

B)

ID	Familiya	Ism	Yosh	Ball
2	Akramova	Laylo	17	85
4	Valieva	Dildora	18	75

C)

ID	Familiya	Ism	Yosh	Ball
1	Karimov	Aziz	18	90
3	Hasanov	Bekzod	19	92
5	Nurmatov	Anvar	20	88

D)

ID	Familiya	Ism	Yosh	Ball
4	Valieva	Dildora	18	75

25. [2,6 ball] O'tkazishni bajaring:

$$8, (2)_{10} \rightarrow x_8$$

A) $10, (16)_8$ B) $8, (154)_8$

C) $10, (15)_8$ D) $10, (1)_8$

26. [2,6 ball] Emailda bitta xabar uchun 20 MB lik cheklov mavjud. Rasmlarning har bir 2,5 MB hajmga ega bo'lsa, 35 ta rasmni nechta xabarda yuborish mumkin.

A) 4 B) 6 C) 5 D) 2

27. [2,6 ball] Firmada 90 ta ishchi ishlaydi. Kadrlar bo'limi ularni ikkilik sanoq sistemasida kodlashni rejalashtirdi.

Xodimlarni kodlash uchun eng kamida necha bit kerak bo'ladi?

A) 8 B) 6 C) 7 D) 9

28. [2,6 ball] Agar $p \wedge \neg q = 1$ bo'lsa, $\neg(p \vee q) \wedge \neg k$ mantiqiy ifodaning qiymatini hisoblang

A) $\neg q$ B) p C) 1 D) 0

29. [2,6 ball] $A1=-2; A2=5; A3=-3$ bo'lsa,

Ruscha:

=ЕСЛИ(A1>A3; ЦЕЛОЕ(СЛЧИС()+3,14; СУММ(A1:A3))

Inglizcha:

=IF(A1>A3, INT(RAND()+3.14, SUM(A1:A3))

formulaning natijasini toping.

A) 3,14 B) 0 C) 7,14 D) 1

30. [2,6 ball] Quyidagi kod natijasini aniqlang.

```
sonlar_1 = [2, 5, 8, 11, 14, 17, 20]
```

```
sonlar_2 = []
```

```
for son in sonlar_1:
```

```
    if son % 2 == 0:
```

```
        sonlar_2.append(son)
```

```
print(sonlar_2)
```

A) [2, 8, 14, 20]

B) 44

C) [5, 11, 17]

D) [2, 5, 8, 11, 14, 17, 20]

11-sinf Informatika kalitlari

№	Javoblar	№	Javoblar	№	Javoblar
1	C	11	C	21	A
2	D	12	A	22	A
3	C	13	A	23	B
4	A	14	D	24	B
5	C	15	C	25	A
6	B	16	B	26	C
7	C	17	D	27	C
8	B	18	A	28	D
9	A	19	A	29	A
10	D	20	D	30	A